

SLANGNING KOGNITIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

I.A.Ziyayev

Qoʻqon davlat universiteti professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21069514>

Annotatsiya

Mazkur maqolada slang birliklarining kognitiv va pragmatik xususiyatlari zamonaviy tilshunoslikning integrativ yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi slangni faqat norasmiy leksik qatlam sifatida emas, balki inson tafakkuri, konseptual tizimi va kommunikativ faoliyatining mahsuli sifatida ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot davomida kognitiv tilshunoslik, pragmalingsvistika va sotsiolingsvistika nazariyalari uygʻunlashtirilib, slang birliklarining konseptual metafora, freym semantikasi va pragmatik inferensiya mexanizmlari orqali shakllanishi hamda qoʻllanishi yoritiladi. Shuningdek, slangning ijtimoiy identiklikni shakllantirish, kommunikativ yaqinlikni taʼminlash, emotsional-ekspressiv taʼsirni kuchaytirish va diskursiv strategiyalarni amalga oshirishdagi oʻrni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari slangning zamonaviy ingliz tilida nafaqat leksik innovatsiya, balki konseptual va pragmatik mexanizmlar asosida rivojlanayotgan murakkab til hodisasi ekanligini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: slang, kognitiv tilshunoslik, pragmalingsvistika, konseptual metafora, freym semantikasi, pragmatik inferensiya, diskurs, identiklik.

1. Introduction

Til inson tafakkurining, ijtimoiy munosabatlarining va madaniy tajribasining eng muhim ifoda vositasi hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat grammatik yoki leksik tizim elementi sifatida emas, balki insonning konseptual faoliyati va kommunikativ ehtiyojlari bilan bogʻliq murakkab hodisa sifatida oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik va pragmalingsvistikaning rivojlanishi natijasida ilgari faqat adabiy meʼyordan chetga chiqadigan norasmiy birlik sifatida baholangan slang zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim obyektiga aylandi (Lakoff & Johnson, 1980; Langacker, 1987).

Anʼanaviy leksikologiyada slang maʼlum bir ijtimoiy guruh yoki yosh qatlamiga xos boʻlgan norasmiy leksik birliklar tizimi sifatida tavsiflangan (Partridge, 2004). Biroq bunday yondashuv slangning murakkab semantik, pragmatik va kognitiv tabiatini toʻliq ochib bera olmaydi. Chunki slang birliklari koʻpincha oddiy nominativ vazifadan tashqari, baholash, ekspressivlik, hazil, kinoya, birdamlik va guruh identikligini ifodalash kabi koʻplab kommunikativ funksiyalarni ham bajaradi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan slang inson tafakkuridagi konseptual jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. Lakoff va Johnson (1980) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga koʻra, inson abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglaydi. Natijada yangi slang birliklari koʻpincha metaforik konseptualizatsiya orqali yuzaga keladi. Masalan, *ghosting*, *spill the tea*, *brain dump* yoki *doomscrolling* kabi birliklar zamonaviy ingliz tilida yangi kommunikativ ehtiyojlarning mahsuli sifatida shakllangan. Ularning maʼnosi lugʻaviy semantikadan koʻra koʻproq umumiy madaniy bilim va konseptual tajribaga asoslanadi.

Ronald Langacker (1987) til birliklarini inson ongidagi konseptual strukturalarning verbal ifodasi sifatida talqin qiladi. Ushbu nazariya slang birliklarini tasodifiy yaratilgan yoki tartibsiz leksik qatlam emas, balki konseptual modellar asosida tashkil topuvchi dinamik tizim sifatida izohlash imkonini beradi. Charles Fillmore (1982) tomonidan ishlab chiqilgan freym semantikasi

nazariyasiga ko'ra esa har bir leksik birlik ma'lum konseptual freymni faollashtiradi. Slang birliklarini anglashda ham ushbu freymlar va madaniy kontekst hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Pragmalingvistika slangning kommunikativ funksiyalarini tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi. Grice (1975) tomonidan ishlab chiqilgan kooperatsiya prinsipi va implikatura nazariyasiga ko'ra, nutq ishtirokchilari ko'pincha so'zlarning bevosita ma'nosini emas, balki yashirin pragmatik mazmunini anglaydilar. Masalan, *He ghosted me* jumlasidagi *ghosted* leksemasi lug'aviy ma'noda "arvohga aylandi"ni emas, balki "hech qanday izohsiz aloqani uzdi" degan pragmatik mazmunni bildiradi. Tinglovchi ushbu ma'noni umumiy madaniy bilim va kommunikativ kontekst asosida inferensiya qiladi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar slangning ijtimoiy identiklikni shakllantirishdagi roliga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Adams (2009) slangni "xalq poetikasi" deb atab, uni insonning ijodkorligi va konseptual tafakkurining mahsuli sifatida baholaydi. Coleman (2012) slangning tarixiy taraqqiyotini tahlil qilib, uning jamiyatdagi madaniy va texnologik o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Eckert (2000) esa yoshlar nutqida slangning indeksikal ma'nolarini tadqiq qilib, bunday birliklar shaxsning ma'lum ijtimoiy guruhga mansubligini ifodalashini ilmiy asoslaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi slang birliklarining kognitiv va pragmatik xususiyatlarini zamonaviy tilshunoslik nazariyalari asosida tahlil qilish hamda ularning konseptual shakllanish mexanizmlari va kommunikativ funksiyalarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat.

2. Materials and Methods

Tadqiqot integrativ metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning nazariy asosini kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va diskurs tahlili tashkil etadi. Tahlil davomida tavsifiy, qiyosiy-tipologik, kognitiv-semantik va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ingliz tilidagi zamonaviy slang birliklari ilmiy adabiyotlar, lug'atlar va zamonaviy diskurs namunalari asosida o'rganildi. Slang birliklarining konseptual tuzilishini aniqlashda konseptual metafora va freym semantikasi nazariyalaridan, ularning kommunikativ funksiyalarini yoritishda esa pragmatik inferensiya va diskurs tahlili metodlaridan foydalanildi.

Results

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, slang birliklari oddiy leksik innovatsiyalar emas, balki insonning konseptual tafakkuri va kommunikativ ehtiyojlari o'zaro ta'sirining mahsulidir. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan har bir slang birligi ma'lum konseptual model yoki mental reprezentatsiyani aks ettiradi. Shu sababli slangni anglash jarayoni lug'aviy ma'noni dekodlashdan ko'ra murakkabroq bo'lib, tinglovchining ensiklopedik bilimi, madaniy tajribasi va kontekstni interpretatsiya qilish qobiliyatiga tayanadi.

George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, abstrakt tushunchalar ko'pincha konkret tajriba asosida konseptuallashtiriladi. Mazkur tamoyil slang birliklarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, **ghosting** leksemasi dastlab *ghost* ("arvoh") konsepti bilan bog'liq bo'lsa, zamonaviy kommunikativ diskursda u "hech qanday izohsiz muloqotni to'xtatish" ma'nosini anglatadi. Bu yerda **KOMMUNIKATIV YO'QOLISH = JISMONIY YO'QOLISH** konseptual metaforasi faol ishlaydi. Demak, slang birliklari yangi voqelikni emas, balki mavjud tajribani yangi konseptual xarita orqali ifodalaydi.

Shunga o'xshash hodisa **spill the tea** iborasida ham kuzatiladi. Lug'aviy ma'noda "choyni to'kmoq"ni bildiruvchi ushbu birikma internet va yoshlar diskursida "sirni oshkor qilish" yoki "g'iybatni aytish" ma'nosini anglatadi. Ushbu birlik quyidagi konseptual metaforaga asoslanadi:

AXBOROT = SUYUQLIK

OSHKOR ETISH = TO’KISH

Mazkur model shuni ko’rsatadiki, slangning semantikasi bevosita lug’aviy ma’nodan emas, balki inson tafakkuridagi konseptual analogiyalar orqali shakllanadi.

Charles Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan freym semantikasi nazariyasi slang birliklarini izohlashda muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Ushbu nazariyaga ko’ra, har bir leksik birlik ma’lum konseptual freymni faollashtiradi. Slang birliklari esa ayniqsa yuqori darajada kontekstga bog’liq bo’lgani sababli, ularning ma’nosi tegishli madaniy va ijtimoiy freymnlarni ishga tushirish orqali anglanadi.

Masalan, **GOAT** qisqartmasi lug’aviy jihatdan "echki"ni anglatga-da, sport va ommaviy madaniyat diskursida u *Greatest of All Time* iborasining qisqartmasi bo’lib, "barcha davrlarning eng zo’ri" ma’nosini bildiradi. Bunday interpretatsiya faqat sport madaniyati va internet diskursi haqidagi umumiy bilimlarga ega bo’lgan tinglovchi uchun tushunarli bo’ladi.

Xuddi shuningdek, **flex** leksemasining dastlabki ma’nosi "mushakni taranglashtirish" bo’lsa, zamonaviy slangda u "boyliyi yoki muvaffaqiyatini ko’z-ko’z qilish" ma’nosini anglatadi. Bu yerda jismoniy kuch konsepti ijtimoiy ustunlik konsepti bilan bog’langan.

Fauconnier va Turner tomonidan ishlab chiqilgan konseptual integratsiya nazariyasiga ko’ra, yangi ma’nolar ikki yoki undan ortiq mental makonlarning integratsiyasi natijasida yuzaga keladi. Zamonaviy internet slangi ushbu nazariyaning eng yorqin namunalaridan biridir.

Masalan, **doomscrolling** leksemasi ikki mustaqil konseptning integratsiyasi natijasida hosil bo’lgan:

- *doom* – falokat, salbiy voqealar;
- *scrolling* – ekran bo’ylab axborotni uzluksiz aylantirish.

Natijada "ijtimoiy tarmoqlarda salbiy yangiliklarni to’xtovsiz kuzatish" ma’nosi yuzaga keladi. Ushbu ma’no tarkibiy qismlarning oddiy yig’indisi emas, balki yangi konseptual struktura hisoblanadi. So’nggi hisoblash lingvistikasi tadqiqotlari slangning semantik o’zgarishi va ommalashish dinamikasi standart leksik birliklardan farq qilishini ko’rsatadi.

Pragmatik nuqtai nazardan slang birliklari faqat axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlarni boshqarish mexanizmi ham hisoblanadi. Grice nazariyasiga ko’ra, nutq ishtirokchilari ko’pincha so’zlarning bevosita ma’nosidan emas, balki kontekst orqali hosil qilinadigan implikaturalardan foydalanadilar. Kognitiv pragmatika ham aynan "aytilgan" va "nazarda tutilgan" ma’no o’rtasidagi bog’liqlikni izohlaydi.

Masalan:

He ghosted me.

Bu gapning lug’aviy ma’nosi "u arvoonga aylandi" emas. Tinglovchi umumiy madaniy bilim va kommunikativ kontekst asosida "u hech qanday izohsiz aloqani uzdi" degan xulosaga keladi. Demak, slangni tushunish jarayoni pragmatik inferensiya va kognitiv qayta ishlashni talab qiladi.

Xuddi shunday:

That movie was mid.

Bu yerda **mid** leksemasi lug’aviy jihatdan "o’rta" ma’nosini anglatga-da, zamonaviy internet diskursida "oddiy", "kutilgan darajada emas", "hayratlanarli emas" kabi baholovchi ma’nolarni ifodalaydi. Tinglovchi ushbu ma’noni faqat zamonaviy internet madaniyati va kontekstni bilgan taqdirdagina to’g’ri interpretatsiya qila oladi.

Discussion

Mazkur tadqiqot natijalari slang birliklarini faqat nostandart leksik qatlam sifatida talqin qilish ularning lingvistik tabiatini to’liq ochib bera olmasligini ko’rsatdi. Tahlillar shuni

tasdiqlaydiki, slang kognitiv, pragmatik va sotsiomadaniy omillarning o‘zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan murakkab til hodisasidir. Shu jihatdan tadqiqot natijalari zamonaviy kognitiv tilshunoslikning tilni inson tafakkurining konseptual modeli sifatida talqin qiluvchi nazariyalari bilan uyg‘unlashadi. Lakoff va Johnson (1980) ta’kidlaganidek, til birliklarining semantikasi insonning konseptual tajribasi va metaforik tafakkuriga asoslanadi. Mazkur tadqiqotda tahlil qilingan *ghosting*, *spill the tea*, *doomscrolling* va *flex* kabi slang birliklari ham aynan konseptual metaforizatsiya va konseptual integratsiya jarayonlari mahsuli ekanligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, slang birliklarining ma’nosi ko‘pincha ularning lug‘aviy semantikasi orqali emas, balki kontekst, madaniy bilim va umumiy kommunikativ tajriba orqali shakllanadi. Bu holat Charles Fillmore (1982) tomonidan ilgari surilgan freym semantikasi nazariyasining amaliy tasdig‘i hisoblanadi. Masalan, *GOAT* qisqartmasining “Greatest of All Time” ma’nosini anglash uchun tinglovchi sport diskursi va internet madaniyatiga oid konseptual freymlarga ega bo‘lishi zarur. Demak, slang interpretatsiyasi faqat lingvistik bilim emas, balki ensiklopedik bilimlar majmuasini ham talab qiladi. Bu esa slangni kognitiv semantikaning eng dinamik tadqiqot obyektlaridan biriga aylantiradi.

Pragmatik tahlil natijalari slang birliklarining kommunikativ strategiyalarni amalga oshirishdagi rolini ham yaqqol namoyon etdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, slang birliklari ijtimoiy yaqinlikni ifodalash, guruh identikligini shakllantirish, emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytirish hamda baholash munosabatini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu natijalar Grice (1975) tomonidan ishlab chiqilgan implikatura nazariyasi hamda Sperber va Wilson (1995)ning relevans nazariyasi bilan mos keladi. Masalan, *He ghosted me* yoki *That movie was mid* kabi birliklarning pragmatik ma’nosi lug‘aviy mazmundan emas, balki tinglovchining kontekstni inferensiya qilish qobiliyatidan kelib chiqadi. Demak, slang birliklarining interpretatsiyasi pragmatik kompetensiya bilan bevosita bog‘liqdir.

Mazkur tadqiqot yana bir muhim jihatni ko‘rsatdiki, zamonaviy internet va raqamli kommunikatsiya slangning rivojlanish sur’atini keskin tezlashtirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va multimedia platformalarida yuzaga kelayotgan yangi slang birliklari qisqa vaqt ichida ommaviy kommunikatsiyaning faol elementiga aylanmoqda. Bu holat slangning dinamik tabiatini, uning jamiyatdagi texnologik va madaniy o‘zgarishlarga tez moslashishini ko‘rsatadi. Natijada slang til tizimining periferik elementi emas, balki zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga javob beruvchi innovatsion leksik qatlam sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari slang birliklarining ingliz va o‘zbek tillaridagi rivojlanish mexanizmlarida umumiy va farqli jihatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Har ikkala tilda ham metaforik va metonimik modellar yangi slang birliklarini hosil qilishning asosiy mexanizmi bo‘lsa-da, ularning lingvokulturologik motivatsiyasi farqlanadi. Ingliz tilidagi slang ko‘proq global ommaviy madaniyat, internet diskursi va pop-madaniyat ta’sirida shakllansa, o‘zbek tilidagi slang birliklari milliy mentalitet, mahalliy madaniy stereotiplar va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli slangni qiyosiy aspektda o‘rganish nafaqat semantik tafovutlarni, balki turli madaniyatlarda konseptualizatsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ham ochib beradi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, unda slang birliklari kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistika kesishgan nuqtada kompleks tahlil qilindi. Bu yondashuv slangni faqat leksik hodisa sifatida emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy identiklik va kommunikativ strategiyalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning mahsuli sifatida talqin qilish imkonini beradi. Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari zamonaviy ingliz tili leksikologiyasi, pragmalingvistika, diskurs

tahlili, tarjimashunoslik hamda chet tillarini o'qitish metodikasi uchun muhim nazariy va metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Tahlil asosan zamonaviy ingliz tilidagi ommaviy kommunikatsiya va internet diskursida faol qo'llanayotgan slang birliklariga qaratildi. Kelgusidagi tadqiqotlarda katta hajmdagi korpus materiallari asosida slangning diaxron rivojlanishi, sun'iy intellekt yordamida slang birliklarini avtomatik aniqlash hamda ingliz va o'zbek tillaridagi slangning lingvokulturologik va psixolingvistik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv slangning kognitiv-pragmatik modelini yanada mukammal ishlab chiqish va zamonaviy tilshunoslik nazariyalarini boyitishga xizmat qiladi.

Conclusion

Mazkur tadqiqot slang birliklarining kognitiv va pragmatik xususiyatlarini zamonaviy tilshunoslikning integrativ yondashuvlari asosida tahlil qilishga qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, slang til tizimining periferik va tasodifiy elementi emas, balki inson tafakkuri, konseptual tajribasi hamda kommunikativ ehtiyojlarining murakkab mahsuli hisoblanadi. Slang birliklarining shakllanishi konseptual metafora, metonimiya, freym semantikasi va konseptual integratsiya kabi kognitiv mexanizmlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning ma'nosi ko'pincha lug'aviy semantikadan ko'ra kengroq konseptual bilimlar va madaniy tajribaga tayanadi.

Pragmatik tahlil natijalari slangning kommunikativ jarayondagi funksional imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligini ko'rsatdi. Slang birliklari nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ijtimoiy identiklikni namoyon etish, guruh birdamligini mustahkamlash, emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytirish, baholash munosabatini ifodalash hamda kommunikativ strategiyalarni amalga oshirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan slang birliklarini interpretatsiya qilish jarayoni pragmatik inferensiya, diskurs konteksti va ensiklopedik bilimlar bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida zamonaviy internet va raqamli kommunikatsiya slangning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani ham kuzatildi. Ijtimoiy tarmoqlar va global media yangi slang birliklarining paydo bo'lishi, ommalashuvi va semantik transformatsiyasini jadallashtirmoqda. Natijada slang til tizimining eng dinamik va innovatsion qatlamlaridan biriga aylanib, zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarni aks ettiruvchi muhim lingvistik vosita sifatida shakllanmoqda.

Nazariy jihatdan mazkur tadqiqot slangni kognitiv tilshunoslik va pragmalolingvistika integratsiyasi asosida talqin qilish imkonini berdi. Bu yondashuv slang birliklarining konseptual tuzilishi, semantik motivatsiyasi va pragmatik funksiyalarini yagona ilmiy model doirasida izohlashga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari leksikologiya, pragmalolingvistika, diskurs tahlili, tarjimashunoslik hamda ingliz tilini o'qitish metodikasida slang birliklarini o'rganish va talqin qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ingliz va o'zbek tillari korpuslari asosida slang birliklarining diaxron rivojlanishini, sun'iy intellekt yordamida slangni avtomatik aniqlash usullarini hamda slangning psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday izlanishlar slangning zamonaviy til tizimidagi o'rni va funksiyalarini yanada mukammal tushunishga hamda kognitiv-pragmatik nazariyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Adams, M. (2009). *Slang: The People's Poetry*. Oxford University Press.
2. Allan, K., & Burridge, K. (2006). *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language*. Cambridge University Press.

3. Coleman, J. (2012). *The Life of Slang*. Oxford University Press.
4. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Dumas, B. K., & Lighter, J. (1978). Is slang a word for linguists? *American Speech*, 53(1), 5–17.
6. Eble, C. (1996). *Slang and Sociability: In-group Language among College Students*. University of North Carolina Press.
7. Eckert, P. (2000). *Linguistic Variation as Social Practice*. Blackwell.
8. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. Basic Books.
9. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In *Linguistics in the Morning Calm* (pp. 111–137). Hanshin Publishing.
10. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics: Vol. 3. Speech Acts* (pp. 41–58). Academic Press.
11. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
12. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar. Volume I: Theoretical Prerequisites*. Stanford University Press.
13. Leech, G. N. (1983). *Principles of Pragmatics*. Longman.
14. Partridge, E. (2004). *A Dictionary of Slang and Unconventional English* (8th ed.). Routledge.
15. Sperber, D., & Wilson, D. (1995). *Relevance: Communication and Cognition* (2nd ed.). Blackwell.